# XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING QARORI

Denov tumani, Sh.Rashidov ko‘chasi 238-uy. 190500, tel.: (+99876) 41-31-400

2023 - yil 18 - fevral VI-72-27-8-111-K/23 Denov tuman hokimligi

## Denov tumanidagi takroriy ko‘cha nomini qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 14-dekabrdagi 01-05/287-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2023-yil 20-yanvardagi 08-00529-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertizasi xulosasini ko‘rib chiqib,

## QAROR QILADI:

1. Tuman komissiyasining 2022-yil 14-dekabrdagi 01-05/287-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2023-yil 20-yanvardagi 08-00529-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertizasi xulosasi ma’qullansin.

2. Tumandagi **takroriy ko‘cha** nomi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman statistika bo‘limi (U.Aliqulov), tuman qurilish bo‘limi (A.Elmurodov) va davlat xizmatlari markazi (O.Xolmirzayev) birgalikda **nomsiz ko‘chani** ro‘yxatdan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman qurilish bo‘limi (A.Elmurodov) hududlardagi **takroriy ko‘cha** nomini yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida

bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Tumandagi **takroriy ko‘cha nomi** Kengash qarori asosida Respublika Kadastr agentligining davlat reyestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

6. Ushbu qarorni tuman hokimligi Axborot xizmati (F.To‘rayeva) tuman hokimligining ijtimoiy saytida va “Chag‘oniyon” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kirsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Ch.Murodov) zimmasiga yuklansin.

**Kengash raisi o'rinbosari** **A.Narzullayev**

Xalq deputatlari Denov tuman
Kengashining
2023 yil 18 fevraldagi
VI-72-27-8-111-K/23-son
qaroriga
1-ilova

## O‘zbekiston Respublikasi Kadastr agentligi tomonidan ekspertiza berilgan Denov tumanidagi mavjud nomsiz ko‘chani nomi.

| T.P | Geogtafik obyektni turi | Joylashgan o‘rni | Geografik obyektning amaldagi nomi | Tuman tomonidan berilgan takliflar | Respublika Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosasi |
|---|---|---|---|---|---|
| **Ko‘chalar** | | | | | |
| 1 | **Tor ko‘cha** | Alouddin MFY | Shahriobod-1 berk ko‘cha | Shahriobod-1 | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |